

7-sinf uchun BSB-1 Loyiha ishi.

Ijodiy topshiriq mavzusi “Ezgulikni ulug‘lagan inson – jamiyat faxri”

Eslatma: Loyiha ishi mavzusini o‘quvchilar o‘zlari ham tanlashlari mumkin.

Format: Loyiha ishi (videorolik, slayd, so‘rovnomalar o‘tkazish, tadqiqotlar olib borish va boshqalar tavsiya etiladi)

Maqsadi: O‘quvchilarda axloqiy fazilatlar – sabr, irodalilik, halollik, odob, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy faollik tushunchalarini shakllantirish; real hayotiy misollar orqali bu fazilatlarning jamiyat rivojiga ta’sirini tahlil qilish.

Loyiha ishi bo‘yicha o‘quvchilarda shakllanadigan ko‘nikmalar:

- shaxsiy mas’uliyatni anglash;

- o‘z fikrini ifoda etish;

- muammoni tahlil qilish;

- ijodiy ishlash;

- jamoaviy hamkorlik;

- estetik taqdimot qilish;

- hayotiy misollar keltirish;

bir-birini takrorlamaydigan g‘oyalarni tatbiq qilishi;

- kreativlik;

- nutq madaniyati;

- jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari (guruhda 4-6 nafar o‘quvchi ishtirok etishi tavsiya etiladi).

Muammoli savol: Agar jamiyatda ko‘pchilik insonlar ezgulik tamoyiliga amal qilsa, qanday ijtimoiy o‘zgarishlar yuz beradi?

Bajarish bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi:

- Mavzuni tanlash

- Jamoalar shakllantiriladi

- Vazifalar taqsimlanadi

- Ish rejasi tuziladi

2. Tadqiqot bosqichi:

- Ezgulik, odob, halollik, mehr-shafqatga oid ma'lumot yig'ish
- Kitob, maqola, suhbat va kuzatuv asosida real hayotiy holatlarni yig'ish

3. Ijodiy ishlov:

- Insho, plakat, videorolik, sahna ko'rinishi, hikoya, intervyu
- Tanlangan shakl asosida mahsulot tayyorlash

4. Taqdimot:

- Ish natijasi sinf oldida taqdim qilinadi
- Har bir ishtirokchi faol ishtirok etadi

5. Refleksiya:

- O'zaro baholash va tahlil
- Qiyinchilik va yutuqlar muhokamasi

6. Texnik talablar:

- **Slayd:** 8–12 ta, qisqa matn va sifatli rasm bilan.
- **Video:** 3–5 daqiqa, guruh ishtiroki bilan.
- **Matnli ish:** A4 format, 2–4 bet, Times New Roman. Foydalanilgan manbalarga havola berilishi shart.

Jamoalarni shakllantirish:

- o'qituvchi tomonidan shakllantirish;
- qur'a tashlash orqali shakllantirish;
- o'quvchilar tomonidan shakllantirish (ayrim o'quvchilarning jamoalarga qo'shilmay qolish holatiga yo'l qo'ymaslik kerak).

Eslatma: O'quvchilar oldindan jamoalarga bo'linib loyiha ishiga tayyorlanadilar. BSB kuni loyiha ishini taqdim etib baholanadilar.

Loyiha ishini baholash mezonlari

Javoblar + yechim

I	Mavzuga moslik, asosiy g'oyaning ochib berilishi	10 ball
	Mavzu aniq ifodalangan, dolzarbligi asoslangan	3 ball
	Asosiy g'oya chuqur va mantiqan yoritilgan	3 ball
	Mavzuga mos yondashuv tanlangan, fikrlar izchil	4 ball
II	Muammo va yechimga yondashuv	10 ball
	Jamiyatdagi dolzarb muammo aniq ko'rsatilgan	3 ball
	Muammo ezgulik g'oyasi bilan bog'langan	2 ball
	Muammoning yechimi aniq va real hayotga mos	3 ball
	Yechimlar dolzarb va amaliy takliflar bilan mustahkamlangan	2 ball
III	Dalillar, misollar va takliflar	10 ball
	Hayotiy misollar va shaxsiy tajriba asosida fikr bildirilgan	4 ball
	Dalillar mantiqan asoslangan va mustahkam	3 ball
	Muammoga oid original takliflar bildirilgan	3 ball
IV	Ijodiylik, taqdimot va dizayn sifati	10 ball
	Taqdimot estetik, chiroyli, texnik talabga mos	4 ball
	Yangi g'oya, kreativ yechim yoki yondashuv mavjud	3 ball
	Nutq boyligi, ifoda aniqligi va guruhdagi faol ishtirok	3 ball
V	Tahlil va xulosa	10 ball
	Tahlil aniq, izchil va asosli	4 ball
	Xulosa mazmunli, mavzuga bog'langan	3 ball
	Loyihaning jamiyatdagi ahamiyati umumlashtirilgan	3 ball
JAMI:		50 ball

Kutilayotgan natija: O‘quvchi: “Ezgulikni ulug‘lagan inson – jamiyat faxri” mavzusining asosiy g‘oyasini tushunadi va mustaqil ifodalay oladi;

Ezgulik, axloq, odob, tabiatga mehr kabi qadriyatlarning hayotdagi ahamiyatini anglaydi va ularni o‘z fikrlari orqali bayon qiladi;

Shaxsiy hayotidagi voqealar yoki kuzatgan holatlar asosida dalillar keltiradi;

O‘z ijodiy ishi orqali jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar qilishda insonning axloqiy fazilatlari nechog‘li muhim ekanini yoritib beradi;

Nutq madaniyati, savodxonlik va vizual yondashuvni (agar plakat yoki taqdimot tanlansa) hisobga olib, o‘z g‘oyasini estetik va mantiqan izchil tarzda namoyon etadi.

Tavsiya: O‘quvchilarga mavzuni tanishtirishda dolzarb ijtimoiy muammolar (insonlar o‘rtasidagi befarqlik, tabiatga loqaydlik, axloqiy inqiroz) haqida suhbat uyushtiring, bu ularning fikrlash doirasini kengaytiradi.

Guruhli muhokamalar orqali har bir o‘quvchining qarashi tinglansin va ular bir-birini rag‘batlantirsin.

Namuna sifatida mashhur insonlar yoki tarixiy shaxslarning ezgulikka asoslangan hayoti haqida qisqacha ma’lumotlar keltiring.

Plakat va taqdimot tayyorlovchi o‘quvchilarga dizayn tamoyillari, aforizm tanlash va tasvir vositalaridan foydalanish bo‘yicha qisqa ko‘rsatmalar bering.

Har bir o‘quvchining ijodiy yondashuvi qo‘llab-quvvatlansin, imloviy yoki nutqiy xatolar ustida individual tahlil bilan ishlang.